

as a result requires use of authentic language. However, there are several drawbacks of this method. One of them is difficulty in evaluating students' attendance and participation. As project work is usually done in groups or at least in pairs it is clear that the responsibilities among the students should be divided. As a rule, this is the task of the teacher to assign the roles, however it is not obligatory and for some students/groups (especially senior students) it is possible to let them choose the responsibilities independently. But when the final product is presented how can the teacher evaluate if all students worked equally well? It is impossible to rely on students answers only. Thus, there should be a certain procedure. For example, students may be asked to come up to the teacher in a certain period (e.g. once a week or in two weeks) and tell what they have done. It can also be given as written task. Students can write feedback on peers what a certain person did in the given period. Or it can be a self-evaluation. In addition, it is a good practice of writing skills. One more difficulty that most teachers come across is dominating students. In the class some students may dominate over the weaker or more passive ones, however, there is the teacher who controls such students and equalizes the participation. Naturally, it is impossible to do the same during the project work. And it is the student who can solve this problem, but not all students are conscious enough to take control over their learning. Some students are happy when someone else makes his/her tasks and let the situation go as it is. This also leads to difficulty in evaluating students' performance as the final result is given, but the teacher does not know how much each student contributed in its creation. The last problem that the teacher usually faces is deadlines. Sometimes it is quite difficult to make students submit the tasks on time even during the classes. But making students follow the deadlines of different stages of a project work is even more difficult. Still, there is a way out of this situation. The teacher may divide the project work into smaller stages and give the deadline for each of them instead of asking for the final product at the end. This is equally useful for both teacher and students. As it has been already mentioned, the students will divide the tasks to be done equally for the whole period and will not procrastinate. For the teacher there is also convenience in evaluating students as they will bring tasks not at the end of the period, but at certain time.

Conclusion. The main aim of the PreSETT program is to teach English efficiently through communicative ways.

References

1. Altbach, P., & Levy, D. (2005). Private higher education: A global revolution.
2. Baxtishodovich, B. S., Suyunovich, T. I., & Kholiqulov, A. (2017). The start-up of tourism in Central Asia Case of World Scientific News.
3. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan. On approval of the strategy of innovative development of the Republic of Uzbekistan for 2019–2021. September 21, 2018 №. UP-5544.
4. Alberty H. B. A Study of the Project Method in Education. Columbus: Ohio State University Press, 1927.
5. Sheppard, K., and F. L. Stoller. Guidelines for the Integration of Student Projects in ESP Classrooms. English Teaching Forum 33 (2) 1995. – P. 10.
6. Stoller F. Project Work: a Means to Promote Language and Content 35 (4) 1997. – P. 2.

REZYUME. Ushbu maqola talabalarning til ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ingliz tilini o'qitishda loyihaga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish muammosiga bag'ishlangan.

РЕЗЮМЕ. Эта статья посвящается проблеме реализации проектно-ориентированного подхода при преподавании английского языка для развития языковых навыков студентов.

SUMMARY. This article is devoted to the problems of implementing Project-based learning approach in teaching English for developing students' language skills.

TALABALARDA TOLERANTLIK TARBIYASI – IJTIMOIIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

A.Yu.Narshabaeva – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: tolerantlik, nutq, tafakkur, migratsiya, izzat, sabr, qanoat, mehr, kengfe'llik, bilimdonlik, murosasizlik, tajovuzkorlik, fenomen, yondashuv, tarif, pozitsiya.

Ключевые слова: толерантность, речь, мышление, миграция, честь, терпение, согласие, сострадание, широта, образованность, честность, неприязненность, явление, примирение, тариф, позиция.

Key words: tolerance, speech, thinking, migration, honor, patience, agreement, compassion, breadth, education, honesty, hostility, phenomenon, reconciliation, tariff, position.

Mamlakatimizda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-son Farmoni 70-maqсадida "Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash", 74-maqсадida esa "Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash. Turli millat yoshlari uchun qo'shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, ularda fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik, bag'rikenglikka asoslangan millatlararo muomala madaniyatni yuksaltirish" kabi muhim vazifalar belgilab berilgan [1].

Oliy ta'lim jarayonida talabalarda tolerant tafakkurni rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirish, madaniy-insonparvar yondashuv asosida ta'lim oluvchilarda nutqiy tolerantlikni rivojlantirish, madaniy turfa xillikka asoslangan o'qitish sharoitida tolerantlikni tarbiyalashning etnopedagogik mexanizmlarini ishlab chiqishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Global muammolarni birgalikda yechimini topish, o'zaro tushinishga erishish zarurati uchinchi ming yillik insoniyat oldiga yuqori talablarni ilgari suradi, tarbiyalash va rivojlantirish natijasi tinchlik madaniyati, muloqot qilish, tushinish va boshqalarning qarashlarini tushinib qabul qilish qobiliyati bo'lishi kerak.

Ijtimoiy harakatchanlik, migratsiya, jamiyatning ochiqligi, madaniy aloqalar va qadriyatlar yo'nalishining rivojlanishi bilan hozirgi jamiyat holatini tavsiflash mumkin, bunda ijobiy holatlar, madaniy va diniy murosasizlik, millatlararo tajovuzkorlik kabi ayrim salbiy tomonlar bilan birga kelishi mumkin. Bunday sharoitda o'zini qadrlaydigan, yuqori darajadagi muloqot madaniyati, hamkorlikka yo'naltirilgan, boshqalarning qarashlariga tolerantlik bilan munosabatda bo'ladigan shaxs talab qilinadi.

Hozirgi zamonda biz turli kelib chiqishi, e'tiqodi, siyosiy, ijtimoiy va madaniy mafkurasiga ega bo'lgan ko'plab insonlar bir-biri bilan chambarchas bog'langan davrda yashayapmiz. Bizning yashash joyimizda biz boshqa madaniyat egalari bilan bir xil havodan nafas olamiz.

Gyote o'z iqtibosida ta'kidlaganidek, tolerantlik shart, chunki u shaxs, jamiyat va umumbashariy farovonlik uchun muhimdir [2:14].

Jamiyatning tolerant shaxsga bo'lgan ehtiyoji talabalar tafakkuriga tolerantlik g'oyalarni singdirish, ularda tolerantlikni rivojlantirish maqsadiga mos keladigan tamoyillar, yondashuvlar, uslublar, vositalarni topish muammosi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillari ilk kunlaridan boshlab yoshlar va ularning kelajagi haqida g'amho'rlik qilish masalalariga e'tibor qaratila boshladi. Yoshlar faolligini oshirish, mamlakatning ertangi kuni, jamiyatda o'zgarishlarga sabab bo'ladigan, ma'naviy salohiyatli kuch hisoblangan yoshlarni ma'naviy va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, jamiyatda munosib o'rin egallashiga qulay sharoitlar yaratish orqali ularni yurt taqdiri va kelajagini hal qiluvchi katta kuchga aylantirish muhim vazifa bo'lmoqda.

Xalqimizga xos bo'lgan tolerantlik va insonparvarlik madaniyatining taraqqiy etishida millatlararo totuvlik, konfessiyalararo hamkorlik muhitining hukm surishi yoshlarimizni Vatanga, Ona yurtga fidoyi va sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

XX asr oxirlarida tolerantlik muammosi tobora dolzarb bo'lib, insonlar, guruhlar, davlatlar munosabatlari orqali ilmiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy jamoalardagi turli jihatlar, har xil darajalar, yondashuvlar, muhokamalarni hisobga

olgan holda ushbu mavzuga jiddiy e'tiborni qaratishni boshlashgan. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida tolerantlik hodisasi keng ko'lamlı ilmiy tadqiqotlar ob'ektiga aylanib, fanlararo va madaniyatlararo xususiyat kasb etadi. Tolerantlik termini jamiyatdagi munosabatlarni tartibga solish mexanizmining bir qismi sifatida olimlarda qiziqish uyg'otdi, bu mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi o'zgarishlar bilan izohlanib, o'z navbatida jamiyat faoliyati va undagi shaxslararo munosabatlar uchun nisbatan yangi ijtimoiy-psixologik, axloqiy-huquqiy, milliy-diniy shart-sharoitlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Shuni ham eslatish joizki, hozirgi vaqtda tolerantlik muammosi katta ahamiyatga ega ekanligini bilish mumkin, u bilan sotsiologiya, iqtisodiy nazariya, psixologiya, falsafa, tarix, siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik va pedagogika fanlari jiddiy shug'ullanmoqda.

Tolerantlikni yoritish bo'yicha ijtimoiy-gumanitar fanlarda turlicha yondashuvlar mavjud. Tolerantlikni talqin qilishda pedagog-olimlar o'z nuqtai nazaridan ta'riflashlar, faylasuflar, siyosatshunoslar, dinshunoslar va psixologlarning bu hodisaga o'z qarashlari mavjud [3:86].

Amerikalik faylasuf Maykl Uoltser (Michael Walzer) ham tolerantlik tushunchasi bilan shug'ullangan va boshqa narsalar qatorida zamonaviy tolerantlik ta'rifining qo'shimcha shakli (umumiy tolerantlikdan tashqari) mavjudligini ko'rsatgan. Bu – cheklash, yengillik va do'stona befarqlik. Bu dunyoda faqat turlarning xilma-xilligi bilan bog'liq. Va u boshqa odamlarga osiqlik, qiziquvchanlik, hurmat va tinglashga tayyorlik, boshqalardan o'rganish kabi ta'rif usulini taklif qildi [4:27-28].

Psixologiya fanlari nomzodi M.S.Mirimanova esa "insondagi insoniylikni ta'minlash"ni tolerantlik bilan bog'laydi. Olimaning fikriga ko'ra, tolerantlikni shakllantirish jarayoni uzoq muddatli va murakkab, jamiyat hayoti bilan uzviy bog'langan jarayondir. Shu bois, tolerantlikni shakllantirishga bo'lgan be'e'tiborsizlik jamiyat kundalik hayotini millatlararo, ziddiyatlarga olib kelishi mumkin [5:24].

Bizning fikrimizga ko'ra, tolerantlikka xos mana shu xususiyatlar ro'yxatini yanada kengaytirish lozim. Darhaqiqat, "tolerantlik" tushunchasi eng avvalo, inson rioya etishi mumkin bo'lgan kundalik amallar tizimini o'z ichiga qamrab oladi. Ammo tolerantlik faqat sabr-bardoshlilik, qanoatlilik tushunchalarigina o'zida aks ettirmaydi. Shu bois, xalqimizning milliy tafakkurida tolerantlik tushunchasi doirasiga e'zoz, izzat, sabr, qanoat, mehr, keng'e'llik, bilimdonlik, boshqa madaniyat va din vakillarini tan olish, taqvodorlik, bag'rikenglik, do'stlik, birodarlik, insonlararo azizlik, o'zaro tenglik, hamjihatlik, tinchlik kabi tushunchalar ham aniq ifodalarda namoyon bo'lishini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Sotsiolog E.G.Karimovanning ta'kidlashicha, "Tolerantlik milliy tarbiya bilan bevosita bog'liq holda rivojlanadi. Chunki milliy tarbiya makondagi mavhumlikka barham beradi va shu bilan birga, milliy madaniy jipslikni, birlikni ta'minlovchi etnik, milliy ma'lumotlarni sinxron va diaxron shaklda avloddan-avlodga o'tkazadi. Shunday qilib, shu millatgagina aloqadar bo'lmagan o'ziga xos tarbiyaviy tizim ushbu millatning boshqa millatlardan farq qilishini, ichki yaxlitligini, benazrligini ta'minlaydi. Bular esa tolerantlikning tarkibiy jihatlaridir" [6]. deb ta'kidlaganiga e'tiborni qaratadi. Demak, tolerantlik tamoyili umuminsoniy qadriyatlardan biri hisoblanib, uning amal qilishi butun insoniyatning tinch va barqaror yashashiga xizmat qiladi.

Shuning uchun uni rivojlantirish xalqaro tashkilotlar diqqat markazida bo'lib, jumladan, dunyo hamjamiyati uchun 1995 yil 16 noyabrda Parij shahrida BMT tizimida (YuNESKO) Bosh konferentsiyasining yigirma sakkizinchi

sessiyasida “Declaration of principles on tolerance” (“Bag’rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi”) qabul qilindi. Ushbu deklaratsiya YuNESKO tashkilotining Bosh Assambleyasi konferentsiyasining 5.61 Rezolyutsiyasi bilan tasdiqlandi. 185 davlat, shu jumladan, O‘zbekiston ham uni imzoladi. Shu davrdan boshlab 16 noyabrni dunyo miqyosida tolerantlik kuni sifatida nishonlash an’anaga aylandi. 2000 yilda YuNESKOga a’zo bo‘lgan davlatlarda jahon miqyosida “Tolerantlik yili” rejasi asosida 2000 dan ortiq tadbirlar o‘tkazildi [7].

Tolerantlik shunday sog‘lom aqida va g‘oya sifatida insonlararo munosabatlarni tartibga soladi, ularni o‘zaro sog‘lom muloqot qilishga o‘rgatadi. Shu nuqtai nazardan, tolerantlik tushunchasi genotsid, rasizm, ksenofobiya, etnotsentrizm, ekstremizm kabi tushunchalarga qarshi bo‘lib, falsafiy-ijtimoiy ing tarkibidan o‘rin oladi. Tolerantlik o‘z mazmuniga ko‘ra jamiyatdagi ijtimoiy voqelik bilan uzviy aloqadorlikni namoyon etadi. Tolerantlik zamonaviy bag’rikenglik tafakkurining negizini tashkil qiladi [8:11].

Hammamizga ma’lumki, xalqimizning an’anaviy qadriyatlari tizimida insonga muxabbat, uning qadriyatlarini anglash, tinchlik va osudalikda hayot kechirish, kattaga hurmat, kichikka izzat, mehribonlik, mehr va oqibat, o‘zgalarni tushunishga sa’y-harakat, birovni tinglash ochiqlik, samimiylik, tug‘ri so‘zlik kabi ahloqiy sifatlar bag’rikenglik tushunchasi tarkibiga kiritilgan hamda ahloqiy normaga aylantirilgan. Tolerantlik siyosiy barqarorlik, ijtimoiy totuvlik, ijtimoiy tushunish, munosabatlarni boshqarish, tinchlik,

millataro totuvlik va siyosiy, etnik, diniy va madaniy bag’rikenglikdan iborat. Shu bilan birga, jahon ziyolilarining ta’kidlashicha, inson tug‘ilish paytidan boshlab chidamlilik fazilatlarini orqali yaxshilik va donolik sari yetilishi mumkin, bunda chidamlilik fazilatlarini o‘zining asosiy orzulari bilan uyg‘inlashadi. Agar bag’rikenglik individual bo‘lsa, demak, odam o‘zini tutish, majburlash, bo‘ysunish holatida qolishi aniq va qarama-qarshi salbiy xatti – harakatni namoyon etadi. Umuman olganda, bag’rikenglik hodisasi milliy hodisalarning aksidir, bu ma’naviy rivojlanish va boshqalarni turli etnik-madaniy va ijtimoiy muhitda tan olish yo‘nalishi bo‘lib xizmat qiladi.

Jahon miqyosida o‘tkazilayotgan bunday keng miqyosdagi tadqiqotlar talabada tolerantlikni rivojlantirishning mohiyati, tuzilmasi va funktsiyalarini aniqlashtirish, mazkur jarayonni amalga oshirishning pedagogik modeli va bilingvistik yondashuv asosida talabalarda tolerantlikni rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Xullas, tolerantlikning turli ta’riflarini tahlil qilish asosida ushbu tushunchaga ilmiy fenomen sifatida mualliflik yondashuvi asosida quyidagicha ta’rif berildi: tolerantlik – bu shaxsning turli xil ijtimoiy-madaniy guruhlar vakillari bilan qadriyatli munosabatiga asoslangan hamda kognitiv, affektiv va xulq-atvor sohalarning o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi tarkibiy qismlarini o‘z ichiga qamrab oladigan hamda shaxsning faol hayotiy pozitsiyasida namoyon bo‘ladigan integratsion sifatidir.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Jungmann T. Praxis der Sprach-und Kommunikationsförderung. Dortmund: Borgmann Media, Buch., 2012. –P. 208.
3. Begmatov A. Bag’rikenglik va uning muqobili. // “O‘zbekistonda millatlararo totuvlik, milliy, diniy va siyosiy bag’rikenglikni yanada rivojlantirishning ijtimoiy, falsafiy masalalari” Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi maqolalari to‘plami. – T.: TDIU, 2020. 816-b.
4. Štefaník, Jozef Individuálny a spoločenský bilingvizmus: Zborník príspevkov z II. Medzinárodného kolokvia o bilingvizmu konaného 10. A 11. júna 2004 na Filozofickej fakulte Univerzity Komenského v Bratislave / Vedec.red.; jaz.fed. Pálcutová, Michaela. Bratislava, Univ. Komenského; 2005. –P. 126.
5. Ковалева А.С. Технология создания толерантной образовательной среды: учебное пособие. -Барнаул: АлтГПИУ, 2015. –С.137.
6. Karimova E.G. O‘zbek tolerantligining etnoregional xususiyatlarini sotsiologik o‘rganish: dis.avt...sots.f.n. – Toshkent: 2003. 23-b.
7. BMT “Tolerantlik tamoyillari Deklaratsiyasi” // O‘zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar. / Mas. muh. A.Saidov. – T.: “Adolat”, 2002. 261-267-b.
8. Хорошилова М.В. Управление процессом формирования толерантности обучающихся. Выпускная квалификационная работа. – Бийиск: 2018. –С. 119.

REZYUME. Mazkur maqolada Oliy ta’lim jarayonida talabalarda tolerantlik tafakkurni rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirish yo‘llari yoritilgan. Tolerantlik siyosiy barqarorlik, ijtimoiy totuvlik, ijtimoiy tushunish, munosabatlarni boshqarish, tinchlik, millatlararo totuvlik va siyosiy, etnik, diniy va madaniy bag’rikenglikning o‘rni ochib berilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье представлены пути совершенствования дидактической системы по развитию толерантного мышления у студентов в высшем образовании. Толерантность включает в себя политическую стабильность, социальное согласие, социальное понимание, управление отношениями, безопасность, межнациональное согласие, а также политическую, этническую, религиозную и гражданскую составляющую.

SUMMARY. This article presents ways to improve the didactic system for developing tolerant thinking among students in higher education. Tolerance includes political stability, social harmony, social understanding, relationship management, security, interethnic harmony, as well as political, ethnic, religious, and civil components.

ТАЛАБАЛАРДА МИЛЛИЙ КАДРИЯТЛАР АСОСИДА МУЛОҚОТ МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Н.О.Омонова – докторант

Термиз давлат университети

Таянч сўзлар: талаба, кадрият, ёшлар, анъана, маданият, мулоқот, миллий, билим, тарбия, таълим, шакллантириш, ривожлантириш.

Ключевые слова: студент, ценность, молодежь, традиция, культура, общение, национальное, знание, воспитание, образование, становление, развитие.

Key words: student, value, youth, tradition, culture, communication, national, knowledge, upbringing, education, formation, development.